

CONFERENCE ON FRONTIERS OF SCIENCE AND ENGINEERING • QATAR •

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA O'RMON HUDUDLARINI BOSHQARISH TIZIMIDA "O'RMON VA YASHIL HUDUDLARNI KO'PAYTIRISH, CHO'LLANISHGA QARSHI KURASHISH AGENTLIGI"NING HUQUQIY MAQOMI VA VAKOLATLARI.

Sultanova Niyozjon Ergashbay qizi

QMU 1-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu tezisdavlatimizda amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar natijasida tashkil etilgan O'rmon va yashil hududlarni ko'paytirish, cho'llanishga qarshi kurashish agentligining huquqiy maqomi, tashkiliy bo'ysunuvchiligi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Tezisdavlatimizda 2025 — 2026-yillarda amalga oshirilgan institutsional islohotlar natijasida shakllangan O'rmon va yashil hududlarni ko'paytirish, cho'llanishga qarshi kurashish agentligining huquqiy tabiati, tashkiliy bo'ysunuvchilik zanjiri va funksional vakolatlari tizimli-huquqiy tahlil qilinadi. Agentlikning "Yashil makon" umummilliy loyihasidagi o'rni, o'rmon fondi yerlarining maxsus huquqiy himoya rejimiga o'tkazilishi hamda cho'llanishga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlarning boshqa davlat organlari bilan chatishuvi masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: o'rmon hududlari, yashil hududlar, cho'llanishga qarshi kurashish, agentlik, huquqiy maqom, "Yashil makon" loyihasi, Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi, o'rmon fondi.

Mamlakatimiz hududining qariyb 80 foizi cho'l va yarim cho'l zonalaridan iborat bo'lib, yerlarning sho'rlanishi, qum ko'chishi va chang bo'ronlari, ayniqsa Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda Buxoro, Navoiy, Xorazm viloyatlarida jiddiy ekologik xavf tug'dirmoqda O'rmon resurslari nafaqat iqtisodiy, balki ekologik xavfsizlikning ham muhim omili hisoblanadi. O'zbekistonda o'rmon fondi maydoni respublika hududining taxminan 12 foizini tashkil etib, uning katta qismi Orolbo'yi mintaqasidagi saksovulzorlar va himoya o'rmonlariga to'g'ri keladi. O'rmon munosabatlarini samarali tartibga solish, avvalambor, ushbu sohada davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi vakolatli organning aniq va barqaror huquqiy maqomga ega bo'lishini taqozo etadi. Biroq so'nggi yillarda amalga oshirilgan institutsional islohotlar

CONFERENCE ON FRONTIERS OF SCIENCE AND ENGINEERING QATAR

natijasida vakolatli organning tashkiliy-huquqiy shakli bir necha bor o'zgardi, bu esa amaliyotda vakolatlar taqsimoti, javobgarlik chegaralari va normativ-huquqiy hujjatlarni qo'llash borasida noaniqliklarni keltirib chiqarmoqda. Shu bois mavzuning ilmiy-nazariy va amaliy dolzarbligi yuqori bo'lib qolmoqda.

Cho'llanish va yerlar degradatsiyasi O'zbekiston, xususan, Orolbo'yi mintaqasi uchun eng dolzarb ekologik muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Mamlakat hududining muhim qismida yaylovlar tiklanishga muhtoj, ko'chma qumlar esa millionlab gektarni tashkil etadi. Ushbu vaziyatda davlatning o'rmon va yashil hududlarni kengaytirish siyosatini institutsional jihatdan mustahkam vakolatli organ orqali amalga oshirishi muhim ahamiyat kasb etadi. 2025-yilning may oyida qabul qilingan farmonlar bilan sohadagi vakolatli organ qaytadan tashkiliy o'zgarishlarga uchradi, bu esa uning huquqiy maqomi va vakolatlarini yangi normativ-huquqiy asosda ilmiy tahlil qilishni taqozo etadi. Bundan tashqari, 2025-yil noyabr oyida Ekologiya vazirligining Hukumat tizimidan chiqarilib, milliy qo'mitaga aylantirilishi natijasida Agentlikning bo'ysunuvchilik zanjiri yana bir bor o'zgardi, bu esa mavzuning yuqori dolzarbligini yaqqol tasdiqlaydi. Agentlik huquqiy jihatdan ikki asosiy hujjat zanjiriga tayanadi. Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-maydagi PF-90-son Farmoni («Yashil makon» umummilliy loyihasi doirasida hamda o'rmonlarni boshqarish tizimida islohotlarni izchil davom ettirish to'g'risida) va shu kundagi PQ-197-son qarori (Agentlik faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida) asosida, ilgari Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzurida faoliyat yuritgan O'rmon xo'jaligi agentligi negizida yangi tuzilma — O'rmon va yashil hududlarni ko'paytirish, cho'llanishga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi va unga respublika ijro etuvchi hokimiyat organi maqomi berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-maydagi “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida hamda o'rmonlarni boshqarish tizimida islohotlarni izchil davom ettirish, yashil hududlarni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-90-son Farmoniga hamda shu kundagi PQ-197-son qaroriga muvofiq, ilgari Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzurida faoliyat yuritgan O'rmon xo'jaligi agentligi negizida O'rmon va yashil hududlarni ko'paytirish, cho'llanishga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi. Yangi Agentlik “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish, ko'chatchilikni rivojlantirish hamda daraxt-

CONFERENCE ON FRONTIERS OF SCIENCE AND ENGINEERING • QATAR •

buta ko'chatlari pitomniklarini kengaytirish bo'yicha respublika ijro etuvchi hokimiyat organi maqomiga ega bo'ldi.

2025-yil noyabr oyida qabul qilingan navbatdagi Prezident farmoni bilan Ekologiya, atrof -muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Vazirlar Mahkamasi tizimidan chiqarilib, uning negizida Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi tashkil etildi. Ushbu o'zgarish natijasida O'rmon va yashil hududlarni ko'paytirish, cho'llanishga qarshi kurashish agentligi, shuningdek Gidrometeorologiya xizmati agentligi va Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi endilikda yangi tashkil etilgan Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi huzurida faoliyatini davom ettirmoqda. Bu holat Agentlikning atigi olti oy ichida ikkinchi marta o'z yuqori turuvchi organini o'zgartirganini ko'rsatadi va o'rmon-huquqiy munosabatlarning institutsional barqarorligi masalasini yana bir bor dolzarblashtiradi. Orol dengizining qurishi natijasida yuzaga kelgan Orolqum cho'li O'zbekiston hududida 2,7 million gektarni tashkil etib, bu Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng yirik texnogen-ekologik falokat maydoni hisoblanadi. Ushbu hududda shamol orqali yiliga o'nlab million tonna tuz va chang ko'tarilishi mintaqaviy iqlimga, aholi salomatligiga va qishloq xo'jaligi mahsuldorligiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatadi. Davlat siyosatida bu muammoni bartaraf etishning asosiy vositasi sifatida saksovulzorlar va boshqa galofit o'simliklardan iborat sun'iy o'rmon-meliorativ qoplamalarni barpo etish tanlangan: so'nggi yillarda mamlakat bo'ylab «Yashil makon» loyihasi doirasida 1 milliarddan ortiq daraxt-buta ko'chati ekilib, ko'kalamzorlashtirish darajasi 2020yildagi 8 foizdan 2025-yilda 14,3 foizga yetkazildi, 2030-yilgacha esa yana 1,27 million gektarda o'rmon barpo etish rejalashtirilgan. Biroq bunday miqyosdagi ekologik-meliorativ faoliyat faqat mustahkam va ichki qarama-qarshiliklardan xoli huquqiy mexanizm asosidagina barqaror natija berishi mumkin. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, Orolbo'yida o'rmonlardan foydalanishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy baza bir necha soha qonunchiligi (o'rmon, yer, suv, ekologiya huquqi) kesishmasida shakllangan bo'lib, bu kesishma nuqtalarida huquqiy bo'shliqlar va kolliziyalar yuzaga kelmoqda. Normativ-huquqiy hujjatlar tahlili Agentlikning quyidagi asosiy vakolatlar guruhiga ega ekanligini ko'rsatadi:

— hisob-kadastr vakolatlari — barcha o'rmonlarning davlat hisobini yuritish, davlat o'rmon kadastrini tuzish va yangilab borish, o'rmonlarni raqamli hisobga olish tizimini joriy etish;

CONFERENCE ON FRONTIERS OF SCIENCE AND ENGINEERING • QATAR •

— loyiha-ijro vakolatlari — “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish bo'yicha respublika miqyosidagi yagona ijro etuvchi organ sifatida faoliyat yuritish, shu jumladan pitomniklarni rivojlantirish va onalik plantatsiyalarini barpo etish;

— muvofiqlashtiruvchi vakolatlar — cho'llanish va yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashish bo'yicha turli tarmoq idoralari faoliyatini muvofiqlashtirish;

— innovatsion-texnologik vakolatlar — “Aqlli o'rmon” (Smart forestry) tizimini, shuningdek ko'chatxonalarda in vitro laboratoriyalarini joriy etish, manzarali o'simliklar urug'i va ko'chatlarini sertifikatlashtirish va standartlashtirish;

— nazorat-cheklov vakolatlari — 2025-yil 1-noyabrdan boshlab o'rmon fondi yer maydonlarini alohida muhofaza qilinadigan toifaga o'tkazish, ularning toifasini o'zgartirishni faqat Prezident qarori bilan ruxsat etilishini ta'minlash, bu esa o'rmon fondi yerlarini boshqa maqsadlarda noqonuniy o'zlashtirishning oldini olishga xizmat qiladi;

— ochiqlik-monitoring vakolatlari — 2025-yil 1-oktabrdan “Yashil makon” elektron platformasi orqali daraxt ekish va kesish jarayonlari, byudjet mablag'lari sarfi hamda huquqbuzarlar tomonidan qoplanadigan kompensatsion ko'chatlar hisobini jamoatchilik nazoratiga ochiq tarzda yuritish.

Xulosa qilib aytganda, o'rmon va yashil hududlarni ko'paytirish, cho'llanishga qarshi kurashish sohasidagi vakolatli organning huquqiy maqomini barqarorlashtirish va uning vakolatlarini qonun darajasida mustahkamlash — Orolbo'yi mintaqasida o'rmonlardan foydalanishni huquqiy tartibga solish mexanizmini takomillashtirishning muhim tarkibiy qismi bo'lib, bu masala keyingi ilmiy tadqiqotlarni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-maydagi “‘Yashil makon’ umummilliy loyihasi doirasida hamda o'rmonlarni boshqarish tizimida islohotlarni izchil davom ettirish, yashil hududlarni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-90-son Farmoni.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-maydagi “O'rmon va yashil hududlarni ko'paytirish, cho'llanishga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-197-son qarori.

CONFERENCE ON FRONTIERS OF SCIENCE AND ENGINEERING • QATAR •

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil noyabrdagi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligini Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasiga aylantirish to‘g‘risidagi Farmoni.

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va ‘yashil iqtisodiyot’ yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-16-son Farmoni.

